

Maqsadi

Bugungi kunda xalqaro standartlarga mos o'quv jarayonining so'nggi yutuqlaridan foydalanish dolzarb muammolardan sanaladi. Shu munosabat bilan Xalqaro aloqalar bo'limi institut bilan dunyoning boshqa ta'lim muassasalari o'rtasida do'stona, madaniy, o'quv va ilmiy yo'nalishlarda hamkorlik aloqalarini o'rnatib, ularni takomillashtirib boradi. Shuningdek, u professor-o'qituvchilarning xorijda malakasini oshirish, stajirovkalar va qisqa muddatli o'quv kurslari va talabalarning almashinuv dasturlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "El-yurt umidi" jamg'armasi, Yevropa Ittifoqi, Rossiya, AQSH va boshqa ko'plab davlatlar tomonidan e'lon qilinadigan grant va stipendiya dasturlarida qatnashish borasida tavsiyalar beradi.